

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

YURAK ISHEMIK KASALLIGIDA LIPIDLAR ALMASHINUVINING AHAMIYATI

Andijon davlat tibbiyot instituti Ichki kasalliklar kafedrasi assistenti

N.A.Tillaboyev

[tillaboyev12@gmail.com](mailto:tillaboyev12@gmail.com)

**Dolzarbliyi:** XX-XI-asrlarda YIK ateroskleroz bilan bog'liq asoratlari avvalgiday o'lim sabablari va ish qobiliyatini yo'qotish bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi. YuIK natijasida o'lim xolatlari va nogironlik kabi xolatlari ko'payib bormokda. Yurak ishemik kasalligining xozirgi vaktda patofiziologiya va patogenezi yetarlicha o'rganilganligi, tezkor diagnostika va davolashning zamonaviy usullari rivojlanganligiga qaramasdan ushbu kasallikdan o'lim xolatlari yuqoriligidagi qolmokda.

**Tekshiruv usullari va predmeti:** Bemorlarda Umumiy XS, yuqori zichli xolesterinli lipoproteidlarni (YuZLP XS), triglitseridlarni (TG) «Roshe» (Germaniya) firmasida ishlab chiqarilgan «Reflotron Plus» zamonaviy biokimyo-ekspress analizatori yordamida aniqladik, lipid spektrni aniqlash uchun qonni nahorda, 12 soat och qolishdan so'ng olingan. PZLP XS va o'ta past zichli xolesterinli lipoproteidlarni (O'PZLP XS) W. Friedwald formulasi bo'yicha aniqlangan PZLP XS, mmol/l=UXS– YuZLP XS– O'PZLP XS, O'PZLP XS= mmol/l=0,45 x TG. Qo'shimcha PZLP XS/ YuZLP XS solishtirmasi va A.Klimov tomondan tavsiya qilingan aterogenlik indeksi: AI = (UXS-YuZLP XS)/YuZLP XS formula bo'yicha aniqlangan.

**Natijalar va muhokama:** Yurak ishemik kasalligi – bu yurakning o'tkir yoki surunkali zararlanishi bo'lib, miokardga qon yetkazilishining susayishi yoki to'xtashi tufayli koronar tomirlarda yuzaga keladigan kasallik hisoblanadi. Bunda diagnostik muolaja olib borish ko'rsatiladi, ulardan eng asosiysi koronarografiya hisoblanadi. Ayrim hollarda toraygan hudud stent kiritish va ballon angioplastika yordamida kengaytirilishi mumkin. Zamonaviy tibbiyotning rivojlanishi angioplastika va toj tomirlarni stentlash singari YuIKni davolashda yangi noyob usullarning yaratilishiga olib keladi. Hozirda toj tomirlarda qon oqishini tiklashda endovaskulyar (tomir ichi) usuli dunyo bo'yicha minglab insonlarning hayoti va sog'ligini saqlab qolmoqda. Biroq, samarali tomir ichi jarrohlik aralashmalari o'tkazilganining birinchi yarim yilligida (kam hollarda bir yilgacha bo'lган davrda) bemorlarda stenokardiya belgilari namoyon bo'ladi. Bu chetlatilgan stenoz restenoz sohasida takror torayish bilan bog'liq bo'ladi.

**Xulosa.** So'nggi yillarda stentlash bo'yicha teri orqali toj tomirlar jarrohlik aralashmalari qaytalanishining ko'payishi natijasida stent ichi trombozi va restenozi bilan bog'liq muammoni o'rganishga e'tibor qaratilmoqda. YuIK rivojlanish darajasi PZLPlar reseptorlarining mikdoriga yoki ular funksiyasi buzilishining darajasiga boglik. Zamonaviy ommaviy tekshiruvlar natijasi ko'rsatadiki ayollarda yurak qon tomir kasalliklardan o'lishi oxirgi yillarda kamaymayapti, balki o'sib bormoqda. Bemolarning asosiy o'lim sababchisi YuIK, arterial gipertensiya va miyada qon aylanishi buzilishi xisoblanadi.